


DAVLAT TILI MASALARIDA POLIMEKANING AHAMIYATI



Atqamboyeva Noila Asad qizi,

O‘zbekiston Jurnalistika va

Ommaviy Kommunikatsiyalar

Universiteti Bosma OAV

2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mediada davlat tili masalalari haqida to‘xtalib o‘tiladi. Davlat tili masalasini yoritishda polemikaning ahamiyati haqida ayrim mulohazalar bildiriladi.

Kalit so‘zlar: Polemika, davlat tili, jamiyat, ta’lim va yoshlar, muammo va yechim, fikr va muloqot.

Globallashgan hamda zamonaviy axborot vositalari taraqqiy etgan bir davrda davlat tiliga e’tibor har qachongidan ham muhim masala hisoblanadi. Sababi bugungi mediada taqdim etilayotgan loyiha va kontentlar, asosan, o‘zbek tilida olib boriladi va sharhlanadi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda bugungi kun uchun dolzarb hisoblangan davlat tilining mediada yoritilishi hamda faoliyatining muntazam kuzatilishi e’tiborga molik hodisadir. Bundan tashqari hayotimizda **ommaviy axborot vositalarining til siyosati amalga oshirishdagi roli tobora ortib bormoqda**. Mediada davlat tili masalalari yoritilishiga bo‘lgan yondashuvlarning xilmassisligi, til normalariga rioya etilishi darajasi, tilga oid muhokamalarning intensivligi va ularning natijalari davlat tilining kelajagi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Mediada davlat tili masalalari yoritilishida namoyon bo‘ladigan polemikalarni tahlil qilish, ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash va

jamoatchilik fikriga, til siyosatiga va davlat tilining o‘rniga ta’sirini o‘rganish zarur.

Qolaversa, mediada polimekaning ahamiyati va ta’sirini ta’kidlash darkor. Sababi ushbu masalalar va unga aloqador muammolar jamiyatda ko‘plab muammolarga sabab bo‘ladi va polemikalar bir qancha jihatlarni o‘z ichiga olishi bilan ahamiyatga ega. Bular quyidagilar:




Avvalo shuni ta’kidlash kerakki, davlat tiliga oid qarashlarda polimekaning o‘rni va ahamiyatini izohlash unga ta’rif va tavsif berish lozim. Polemika (yunon. polemikos-jangovar, dushman) - bu o‘z nuqtai nazarining to‘g‘riligini va dushman pozitsiyasining nomuvofiqligini isbotlash uchun og‘zaki raqobatdir¹. Urush qaysiki ma’noda, ya’ni bir tomon ikkinchi tomon fikrini rad qilgan holda faktlar asosida isbot etishdir. Demak, polemika aniq dalil va isbotni talab qiladi. Bu o‘rinda axborot oqimini iloji boricha samarali boshqarish, yo‘naltirish, ortidan ergashtirish maqsad qilib olinadi. Ya’ni polemika universal vosita bo‘lib xizmat qiladi.

¹ Шестерина А. М. Полемический текст в современной прессе: автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Воронеж, 2004. – 11 с.

Polemika – bu ikki yoki undan ortiq kishilarning biror masala bo‘yicha fikr almashinushi, bahslashushi, o‘z nuqtai nazarlarini himoya qilish jarayonidir. Uning maqsadi haqiqatni aniqlash, muammoni chuqurroq tushunish, yangi g‘oyalarni shakllantirish yoki o‘z nuqtai nazarini boshqalarga ishontirish bo‘lishi mumkin.

Polemikada quyidagi elementlar muhim ahamiyatga ega:



- * Tezis: Polemikada muhokama qilinadigan asosiy fikr, da'vo.
- * Argumentlar: Tezisni tasdiqlash yoki rad etish uchun keltirilgan dalillar, faktlar, misollar.
- * Dalillar: Argumentlarni qo‘llab-quvvatlovchi ma’lumotlar, shuningdek, raqamlar, tadqiqotlar va boshqalar.
- * Qarama-qarshi fikrlar: Polemikada qatnashuvchilarning o‘zaro qarama-qarshi fikrlari.
- * Rebuttal (raddiya): Qarama-qarshi fikrlarga berilgan javoblar, ularning noto‘g‘riligini isbotlashga qaratilgan dalillar.

Mediada til masalalarining yoritilishi tildan qanday foydalanish, til bilan bog‘liq masalalarining qamrov darajasi hamda ularning jamiyatga ta’siriga bog‘liq jarayon hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, har qanday til rivoji, uning kelgusidagi taraqqiyoti uchun polimekaning o‘rni hamda ahamiyati muhim hisoblanadi. Jamiyatimizda uchraydigan til bilan bog‘liq muammolar, o‘zaro muloqot jarayonlari davlat tili masalalariga bag‘ishlangan polemikalarni tahlil qilish orqali kommunikativ jarayonlarda polemikaning rolini, uning ijtimoiy va siyosiy ta’sirini o‘rganish imkonini beradi. Polemika qanday qilib jamoatchilik fikrini shakllantirishga va davlat tilining o‘rni va ahamiyati bo‘yicha muhokamalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шестерина А. М. Полемический текст в современной прессе: автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Воронеж, 2004. – 11 с.
2. Павлова Л. Г. Спор, дискуссия, полемика: Книга для учащ. стар. клас. сред. школы. – Москва: ,Просвещение, 1991. – 6 с.
3. ФИЛОСОФИЯ Учебник. 2-е издание ИКОННИКОВА Г.И., ЛАВРИНЕНКО В. Н., РАТНИКОВ В.П., СИДОРОВ М.М.ФИЛОСОФИЯ Учебник. 2-е издание Москва Юристъ 2004 234 с
4. Абрамов С. Война и журнал: О страницах «Нового мира» сорокалетней давности / С. Абрамов // Новый мир. – 1985. – № 1. – С. 225.
5. Prezident OAV xodimlarini tabrikldi va professionallikga chaqirdi. <https://www.gazeta.uz/oz/2020/06/26/president-media/>
6. O’zbekiston Respublikasining —Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to’g’risida||gi qonuni. /Axborot va axborotlashtirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar to’plami. –T.: Adolat, 2008.